



THE ISSUE OF GRATITUDE IN THE SOCIO-ANTHROPOLOGICAL VIEWS OF ALISHER NAVOI

Anorgul Akhtamovna Gulova

Doctoral student of Andijan State University

gulovaanorgul2@gmail.com

Andijan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Justice, spirituality, enlightenment, thought, society, education, faith.

Received: 25.08.25

Accepted: 26.08.25

Published: 27.08.25

Abstract: This article explores the socio-anthropological interpretation of the concept of gratitude in the works of Alisher Navoi. In his worldview, gratitude (shukr) is regarded as a measure of spiritual perfection, patience, faith, and social harmony. Using verses from the Qur'an, hadiths, and meaningful poetic lines, the article reveals the role of gratitude in human development. It also analyzes the philosophical connection between patience and gratitude.

ALISHER NAVOIYNING IJTIMOIIY-ANTROPOLOGIK QARASHLARIDA SHUKRONALIK MASALASI

Anorgul Axtamovna Gulova

Andijon davlat universiteti doktoranti

gulovaanorgul2@gmail.com

Andijon, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Adolat, ma'naviyat, ma'rifat, tafakkur, jamiyat, ta'lim, e'tiqod.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiy asarlaridagi shukronalik g'oyasining ijtimoiy-antropologik talqini tahlil qilinadi. Navoiy tafakkurida shukr – ma'naviy barkamollik, sabr, e'tiqod va ijtimoiy uyg'unlik mezoni sifatida talqin etiladi. Maqolada Qur'oni karim oyatlari, hadislar, hikmatli baytlar asosida shukrning inson kamolotidagi o'rni ochib beriladi. Shuningdek, sabr va shukrning o'zaro aloqasi falsafiy yondashuvda tahlil qilinadi.

ПРОБЛЕМА БЛАГОДАРНОСТИ В СОЦИАЛЬНО-АНТРОПОЛОГИЧЕСКИХ ВОЗЗРЕНИЯХ АЛИШЕРА НАВОИ

Аноргул Ахтамовна Гулова

Докторант Андижанского государственного университета

gulovaanorgul2@gmail.com

Андижан, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Справедливость, духовность, просвещение, мысл, общество, образование, вера.	Аннотация: В данной статье рассматривается социально-антропологическое толкование идеи благодарности в произведениях Алишера Навои. В его мировоззрении шукр (благодарность) осмысливается как критерий духовного совершенства, терпения, веры и социальной гармонии. На основе аятов Корана, хадисов и мудрых бейтов раскрывается значение благодарности в становлении личности. Также анализируется философская взаимосвязь между терпением и благодарностью.
--	--

Kirish. Sharq ma'naviy merosida shukronalik tushunchasi insonning axloqiy-ruhiy kamolotida markaziy o'rin egallaydi. Bu tushuncha nafaqat diniy-falsafiy qarashlarda, balki ijtimoiy hayot va madaniy qadriyatlarda ham chuqur aks etgan. Shukronalik insonning mavjud ne'matlarga minnatdor bo'lishi, boriga qanoat qilish va shu orqali ruhiy barqarorlikka erishishini anglatadi.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy o'z ijodida shukronalikni nafaqat individual fazilat sifatida, balki ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlovchi, adolat va hamjihatlikni ta'minlovchi omil sifatida talqin etadi. Uning asarlarida shukr qilish insoniy burch, ma'naviy poklanish va ijtimoiy uyg'unlikning muhim tamoyili sifatida yoritiladi. Navoiy qarashlarida shukronalik nafsni jilovlash, qanoat va sabr-toqat bilan chambarchas bog'lanib, shaxsiy komillik hamda ijtimoiy taraqqiyotning tayanch nuqtalaridan biri sifatida ko'riladi.

Ayonki, shukr tushunchasi muqaddas dinimizning eng asosiy va barcha muslim hamda musulmalar rioya qilishi zarur bo'lgan amallaridan sanaladi. Zero, Qur'oni Karimning Baqara surasi 172-oyatida bayon qilinishicha, "Ey, imon keltirganlar! Allohgagina ibodat qiluvchi bo'lsangiz, sizlarga Biz rizq qilib bergan pokiza narsalardan yeb, Unga shukr qilingiz!"[1]. Shu bilan birga, "Man lam yashkurinnasa lam yashkurilloha" degan Hadisi Sharifning ma'nosini Hazrat Navoiy quyidagicha tavsiflaydi:

Kafshsizlikdin malul bo'lmag'il, ayog'sizlarga boqib, shukr qil[2].

Kiyishga kovushim yo‘q, deya arz-dod qilma, aksincha oyog‘sizlarga qarab shukronada bo‘l.

Metod va metodologiya. Mazkur maqolada ilmiy bilishning tarixiylik, ilmiy xolislik, mantiqiylik va vorisiylik, qiyosiy-tipologik, germenevtika, analiz, sintez singari usullaridan foydalanilgan.

Muhokama va natijalar. Alisher Navoiy shukur to‘g‘risida shunday deydi:

Gadolarg‘a gahe lutf et, shaho, bu shukr uchunkim,

Haq — Seni lutf aylabon shoh ayladi, bizni gado aylab[2].

Ey hukmdor, Alloh yorlaqab, seni podshohu bizni qalandar qilibdi, buning shukronasiga gadolarga ba‘zida marhamatli bo‘lib tur.

Oshiqekim, ko‘rgay ul bir qatla har kun yorini,

Tengrisiga ayladeg yuz qashla shukr izhorini[2].

Mahbubasini kunda bir ko‘radigan oshiq Allohga yuz karra shukrona keltirsin.

Ranja bo‘lma tilab ortuqki, erur osuda

Ulki, Haq har ne nasib ayladi, xursand o‘lmish[2].

Haddan ortiq mol-mulk istab, o‘zingni har kuyga solma. Alloh nasiba qilganiga shukronada bo‘lgan insonning qalbi xotirjam bo‘ladi. Alisher Navoiyning bu kabi purma‘no baytlari ayni bugungi kunimiz uchun ham dolzarbdir. Hozirgi paytda globallashuv natijasida ko‘pgina yoshlar mol-mulk ortidan quvib, o‘zini har tomonga urmoqda. Buning natijasida aksariyat hollarda sog‘ligini ham yo‘qotmoqda. Ne mashaqqatlar bilan topilgan pul esa ortiqchasi bilan yo‘qotilgan sog‘likni qayta tiklashga sarflanmoqda.

Ulki, Xoliqg‘a shukr der, avval

Shokir o‘lmoq kerak xaloyiqdin.

Kimki maxluq shukrini demagay,

Demagay dag‘i shukr Xoliqdin[2].

Allohga shukrona keltiradigan inson avvalo kishilarga shukr aytmog‘i lozim. Insonlardan noshukr bo‘lgan odam Allohga ham shukrona keltirmaydi. Alloma bu bilan tomchida quyosh aks etgani kabi har bir insonda ham Xudoning zuhuri (aksi) bor demoqda. Ularning har biri biz uchun ustoz. Bizga kimdir o‘z xatti-harakati bilan nimadir qilish kerakligini o‘rgatsa, kimdir ma‘lum bir amalni qilmaslik lozimligini o‘rgatadi. Shuning uchun ulardan hech qachon xafa bo‘lmasdan, ularni boricha qabul qilishi, ularning borligiga shukr aytishi lozim.

Xudoy uchun qiling, ey porso yigitlar, shukr —

Ki, sizga jurmu gunahdin Xudo nigahbondur [2].

Ey xudojo'y, taqvoli yigitlar, Allohga shukrona keltiringki, Allohning o'zi sizni ayb va gunoh ishlardan saqlaydi. Demak, faqatgina Tangri taolo bergan cheksiz-chegarasiz ne'matlarga shukronada bo'lish bizni gunohlardan asrarkan. Lekin, insonlarni kuzatadigan bo'lsak, ularning ko'pchiligi ozgina muammodan ham noliyveradi. Bu bilan ular o'zlari sezmaganda ham sog'liklariga, ham kelajaklariga salbiy ta'sir ko'rsatishadi. Navoiy asarlari g'oyalaridan boxabar avlod esa buni o'z hayotiga tadbiq etib, har tomonlama mukammallikka erishishi, shubhasiz.

Charxdin ne kelsa, xush bo'lkim, sening ko'nglung uchun

Aylamas davrini hargiz gunbadi davvor bas[2].

Peshonangga yozilganiga shukr qilginki, doimiy aylanma harakat qiluvchi bu falak sening qalbingga qarab harakatini hargiz to'xtatmaydi. Shu o'rinda Jaloliddin Rumiyni "Tashqi dunyo oyna. Nima ichingda bo'lsa, shu tashqarida" degan fikrlari Hazrat Navoiyni yuqoridagi fikrlari mazmuni bilan hamohangligini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni biz ong osti darajasida tashqi dunyodagi narsalarga nisbatan qanday munosabatda bo'lsak, hayotimizda shu narsalar aynan shu holatda namoyon bo'ladi. Shunday ekan "Dunyo mendan boshlanadi" degan g'oya juda asoslidir. Shuning o'chun biz hayotimizdagi ayrim ko'ngilsiz voqea-hodisalar uchun kimlardir aybdor ko'rmay, bizdan chiqayotgan salbiy energiya tufayli shunday bo'layotganligini anglab yetib, mas'uliyatni yuz foiz bo'ynimizga olishimiz lozim. Alloh tuhfa etgan cheksiz-chegarasiz ne'matlarning boriga shukur qilib, muammoning ichida emas, aksincha tashqarisida turgan holda fikrlab, unga osonlik bilan yechim topishga harakat qilmog'imiz darkor.

Insonlarning doimo shukronalik kayfiyatida bo'lishi va undan keladigan mukofot to'g'risida Qur'oni karimda quyidagicha fikr bildiriladi: "Agar insonga o'z tomonimizdan rohatni torttirib, so'ngra uni undan tortib olsak, u, albatta, noumid va noshukr bo'lur. Agar unga yetgan qiyinchiliklardan so'ng ne'mat torttirsak, albatta: "Mendan yomonliklar ketdi" deydi. Albatta, u xursanddir va faxrlanuvchidir. Ammo sabr qilganlar va solih amallar qilganlarga – ana o'shalarga mag'firat va katta ajr bor". Imom Ahmad va Imom Muslim quyidagi rivoyatni keltiradilar: "Rasululloh (s.a.v) shunday dedilar: "Agar mo'minga xursandchilik yetsa, shukr qiladi. Bu unga xayrlidir. Agar unga biror zarar yetsa, sabr qiladi. Bu ham unga xayrlidir".

Sabr shundayin bir kuch-qudratga egadirki, odam uning mevasidan keyinroq bahramand bo'ladi. Sabr qilish ilmini maromiga yetkazib o'rgangan insonga foniy dunyo mushkulotlarini yechish pista chaqqandek oson bo'lib qoladi hamda u odam buni bitmas-tuganmas azob-uqubat emas, rohat-farog'at deya qabul qiladi. Xalq og'zaki ijodi mahsuli bo'lmish "Sabrning tagi sariq oltin" degan maqol ham bekorga aytilmagan. Rivoyatlarga ko'ra, Buxoroda musulmon dunyosida dong'i ketgan buyuk bir donishmand hayot kechirgan ekan. U ilmini yanada oshirish uchun Eron, Iroq, Turkiya davlatlarida bir qancha vaqt yashabdi. Ilm o'rganish bilan birga, o'zi

ham talabalarga ilohiyot ilmining turli yo'nalishlaridan ta'lim berib, peshona teri evaziga to'pligan pullariga noyob va qimmatbaho kitoblarni xarid qilib, Buxoroga qarab ravona bo'libdi. Tunning qoq yarmida karvon Buxoroga yetib kelgan ekan. Uzoq-uzoqlardan itlarning hurishi-yu qo'ylarning ma'ragan tovushi eshitilibdi. O'lis yo'l qiyinchiliklaridan charchagan donishmand va uning do'stlari onasiga ona Vatanlari bag'riga – Buxoroyi sharif quchog'iga talpinibdilar. Shahar darvozasiga yaqinlashgan donishmand, uni sekin taqqillatib, qorovulini chaqiribdi. Oyoq tovushlari eshitilganidan ko'p vaqt o'tmay, darvozabon ovoz beribdi. O'zini Abu Hafs Kabir deb tanishtirgan donishmand, "Tuyalar karvonida Ona yurtimga ilm-u ma'rifat xazinasini olib keldim", – debdi. Qorovul Hazrati Imomning aytgan gaplari mag'zini chaqarkan, shuning barobarida, "Hazrat, komil iymon chist?", ("Komil iymon nedir?") – deb so'rabdi. Abu Hafs Kabir bir necha daqiqa o'ylanib qolibdilar. Keyin darvozaga yaqinlashib, "Komil iymon sabrdir" deb javob beribdilar. Ushbu javobni eshitgan qorovul: "Juda to'g'ri, komil iymon sabrdir. Shu sababli ham biroz kutib turing, darvozani ochadigan kalitlar qorovulboshida. Tong otgach, shaharga kirasizlar", – debdi. Hazrati imom esa Buxoro ahlining qanchalik dono va farosatlilikiga yana bir karra amin bo'lib, savoli bilan o'ylantirib qo'ygan darvozabonning zukkoligiga lol qolibdilar. Tong yorishib, shaharni bomdod namozining sehrli sadolari egalladi... Qulflarning zalvorli jaranglashidan keyin salobatli darvozalar ochilib, sabr qilib tizilib turgan karvonlar ketma-ket shaharga kira boshlabdi. Mazkur rivoyatdan iymonning boshi (komili) sabr ekanligini anglasa bo'ladi. Sabrlilargina ko'zlagan maqsadlariga erishadilar, Alloh vasliga yetishadilar.

Qissadan hissa sifatida shuni aytish lozimki, har bir kishi taqdir imtihonlari oldida o'zini yo'qotib qo'ymasligi, shukr qilish uchun sabablarni ko'ra olishi, peshonaga yozilganiga qanoat qilishi kerakki, shu holdagina inson ikki dunyoda ham saodatga erishadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiyga ko'ra axloqiy qusurlarning barchasi zararli hamda ular biri keyingisini yetaklab, insonni nafs iskanjasiga tortadi, yovuzlikdan yovuzlik bunyod bo'ladi. Holbuki, bani bashar avlodi sharifdir hamda ushbu jihatlarning hech biri uning ulug' nomiga nomunosibdir. Odam o'z Nafsining yovuzligi ustidan g'alaba qozonib, iroda kuchi bilan o'zini tiyishi hamda ruhiy-ma'naviy yetuklik tomon olg'a yurib, hayotini savobli amallarga safarbar etishi lozim. Ayonki, "nafs" tushunchasi tasavvufda muhim o'ringa ega. Tasavvufshunos Najmiddin Komilov "Tasavvuf ahli barcha falokatlar, yomonliklarning bosh sababchisi, insonni buzadigan asosiy nuqs sifatida nafsni ko'rsatadilar va nafsqa qarshi urush e'lon qilganlar"[3], deb ta'kidlaydi. "Hayrat ul-abror" asarida Navoiy manmanlik, mayparastlik, zolimlik kabi insonga xos salbiy jihatlarni to'g'risida fikr bildirarkan, ular nasf alomatlari ekanini ko'zdan qochirmaydi. Ularning barchasi barkamollik yo'lidagi to'siqlardir.

Alloma chiroyli xulq ijtimoiy gumanizatsiyaning muhim belgisi ekanligini o'z asarlari orqali isbotlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A.Mansur.(tarj. va izoh muallifi). Qur'oni Karim. – B. 19.
2. Ibratli hikoyatlar va xislatli hikmatlar. Nashrga tayyorlovchilar A.Tilavov, I.Saydullaev, –Toshkent: Sano-standart. 2016, –90-b.
3. Ochilova M. Alisher Navoiy ma'naviy-axloqiy qarashlarining ijtimoiy falsafiy tahlili: Fals. fan. dok. (PhD)...diss. – Buxoro, 2024. – B. 60.
4. Sobirovich, T. B. (2021). The Strategy of Cultural Development in Central Asia During Amir Temur and the Timurids Dynasty. Int. J. Sci. Res. in Multidisciplinary Studies, 2021.
5. Sobirovich, T. B. (2021). The Strategy of Cultural Development in Central Asia during Amir Temur and Timurids Dynasty Reign. Irish Interdisciplinary Journal of Science & Research (IIJSR), 5(1), 18-22.
6. Turdiyev, B. S. (2019). The role of national harmony in the strategy of spiritual renewal. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(6), 229-233.